

MAMLAKATDA TIKLANUVCHI ENERGIYALARDAN FOYDALANISHNI
RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Kasimov Akram Bekpulatovich

*Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti
1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalanishni rivojlantirish va samarodorligini oshirish yo'llari haqida bayon etilgan.

Kalitso'zlar: O'zbekiston, tarix, xotin-qizlar, qaror, gendirtenglik, boshqaruv, davlat, jamiyat, tizim, davr, yurt, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnologik.

Rivojlanib borayotgan O'zbekistonda qayta tiklanadigan energetika sohasidagi davlat siyosatida sanoati rivojlanagan, shu bilan bir qatotda rivojlanayotgan qator mamlakatlarning qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishdagi rivojlanish tajribasi va ularning miqyosi hisobga olingan. Bu shuni ko'rsatdiki, qayta tiklanadigan energetika sohasida aniq maqsad va vazifani belgilashi hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi –qayta tiklanadigan energiyaning an'anaviy energiya ishlab chiqarish texnologiyasiga nisbatan raqobatbardosh bo'lishiga ko'maklashadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan foydalanishga bir qadar salmoqli mablag' sarflansada, ular iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi. An'anaviy yoqilg'i bilan ishlaydigan energetika tufayli havoga chiqayotgan oltingugurt, azot, uglerod oksidlari uzoq masofaga tarqaladi. Bundan tashqari, ular yomg'ir suvlari bilan qo'shilib, kislota birikmalariga aylanadi hamda yomg'ir tarkibida yerga tushib, o'simliklarga, tuproqqa salbiy ta'sir ko'rsatadi. Atrof muhitda bunday kislotalarning ko'payishi oqibatida, og'ir metallar oziq-ovqatlarga va pirovardida shu mahsulotlar orqali inson organizmiga ta'sir ko'rsatadi. Bunda bir zarar ikkinchi bir zararni ham o'zi bilan birga olib keladi. Quyosh energiyasi. O'bekistonda quyosh energiyasi imkoniyati hammasidan ko'ra ko'proq. Quyosh – eng yaqin yulduz, usiz bizning sayyoramizda hayot bo'lishi mumkin emas. Kishilar o'zining hayotida quyosh energiyasidan u yoku bu usul bilan bu haqida o'ylab ham o'tirmay, foydalilanildilar. Masalan, hovliga kir yoysak – biz quyoshdan kelayotgan issiqlik energiyasini ishlatamiz. Shamol energiyasi. Shamol – havoning harakatdagi oqimi. Havoning harakati yer yuzasini quyosh tomonidan notekis qizdirishga sabab bo'ladi. Yer yuzasi harxil shaklga – yer va suv fazosiga ega bo'lgani sababli, u kelayotgan issiqliknari xil hajmda qabul qiladi. Yorug' kun mobaynida havo dengiz va okean ustidan ko'ra, quruqlik ustida tezroq isiydi. Qizigan havo yer ustida kengayadi va osmonga ko'tariladi, uning o'rnini og'irroq sovuq havo qatlami egallaydi va uning bu harakati shamolni hosil qiladi. Kechqurun shamol o'z yo'nalishini o'zgartiradi, chunki suv ustidagiga nisbatan yer yuzasidagi havo tez soviydi. O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi, bozor munosabatlariga o'tish, agrosanoat tarmoqlarida energetik resurslarini tejaydigan kompleks

texnologiyalarni qo'llash va ularni ilmiy asoslarini yaratish bilan aniqlanadi. Hozirgi vaqatda olinadigan energiya asosan qayta tiklanmaydigan energiya manbalari hisobiga olinadi. Bugungi kunda tabiiy yoq'ilg'i ishlatalish miqdori dunyo bo'yicha 12 milliard tonna neft ekvivalentiga teng. Bu esa har bir kishiga taxminan 2 tonna yoqilg'i to'g'ri keladi deganidir. Ma'lumotlarga qaraganda, so'ngi 40 yil davomida butun insoniyat tarixi mobaynida qazib olingan organik yoqilg'idan ham ko'p yoqilg'i iste'mol uchun o'zlashtirilgan. Bu esa ularning zaxirasini tez kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda. 2050 yilga borib aholi sonining 9-10 mld kishiga yetishi energiyaga bo'lgan ehtiyoj 3 barobarga ortadi. Ayni paytda dunyoning 80 ga yaqin mamlakatlarida muqobil energiya manbalaridan foydalanish dasturlari asosida ilmiytadqiqotlar olib borilmoqda. Quyosh qurilmalaridan binolarni isitish va sovitish, chuchuk suv olish, elektr energiyasi hosil qilish hamda turli texnologik jarayonlarni amalgam oshirishda qo'llanilmoqda. Mamlakatimiz janubidagi viloyatlarda bir yillik quyoshli kunlar 280- 300 kunni tashkil qiladi. Yoz kunlarida o'rtacha harorat 44-45°C temperaturani tashkil qiladi. Bunday beminnat quyosh energiyasidan xalq xo'jaligida foydalanish dolzarb hisoblanadi. Aynan BMT da ham qayta tiklanuvchi energiyalar haqida loyihalar ishlab chiqildi. BMT Taraqqiyot Dasturining "O'zbekistonda qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirishning milliy strategiyasini ishlab chiqishga doir umumiyl tadqiqotlar" loyihasi bo'yicha hisobot materiallari va qayta tiklanadigan energetika sohasida amalga oshirilgan boshqa bir qator halqaro loyihalar hisobotlariga asoslangan holda taylorlangan bo'lib, unda avvalo O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish istiqbollari va energetikaga doir ahvolning tahlili haqida so'z yuritiladi. Nashrda hech qanday aniq echimlar taklif etilmagan, mamlakat va undagi hududlarning energiya bilan ta'minlanish darajasi baholanmagan, qolaversa, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish strategiyasi ham taklif etilmagan. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 24-martdag'i "Energetika vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 127-son qarori qabul qilindi. Davlatimiz rahbarining 2021 yil 9 apreldagi PQ-5063-son qaroriga muvofiq Fanlar akademiyasining "Xalqaro quyosh energiyasi instituti" MChJ negizida Energetika vazirligi huzurida Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy-tadqiqot instituti va uning tuzilmasida Vodorod energetikasi ilmiy-tadqiqot markazi hamda Qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasi texnologiyalarini sinash va sertifikatlash laboratoriysi tashkil qilingan. Nashrni taylorlashdan maqsad- rahbar hodimlar, ilm va jamiyat ahlining e'tiborini O'zbekistonda qayta tiklanadigan energetika imkoniyatlariga qaratish hamda ushbu sohani kengroq tanishtirishdan iboratdir. Hozirgi kunda iste'mol qilinayotgan energyaning 80 foizi tabiiy yoqilg'ilar deb ataluvchi ko'mir, neft, gazlarni yoqish natijasida olinmoqda. Tabiiy yoqilg'ilar yana bir necha o'n yil asosiy energiya manbai bo'lib qoladi. Keyin esa energiya olishning boshqa yo'llarini topishga to'g'ri keladi. Tabiiy yoqilg'ilardan tashqari energiya olishning yana bir manba - bu gidroelektrostansiyalardir. Ammo bunday

gidrostansiyalar qurish uchun ko'plab gektar o'rmonlardan, yaylov va hosildor erlardan voz kechishga to'g'ri keladi. Gidrostansiyalarning sun'iy dengizlari bu yerkarni o'z suvi bilan bosib ketadi. Bugungi kunda energiya resurslariga bo'lgan talab tarkibiy jihatdan o'zgarmoqda, xususan uglevodorod resurslaridan qayta tiklanuvchi manbalarga o'tishda vodorod energetikasini rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Xususan, jadallahayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining o'sishi iqtisodiyotning energiya resurslariga bo'lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda, shuningdek, atrof-muhitga salbiy antropogen ta'sirni kuchaytirmoqda. Respublikaning energetika xavfsizligini mustahkamlash uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va vodorod energetikasini barqaror rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan, ushbu sohaning ilmiy salohiyatini kuchaytirish talab etiladi. O'zbekiston 2030-yilga qadar qayta tiklanadigan energiya (QTE) manbalari ulushini 25 foizgacha oshirishni rejalashtirgan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

Xulosa qiliv aytganda energetika vazirligi mutaxassislari O'zbekistonda shamol elektr stansiyasini qurish va undan foydalanish loyihasini amalga oshirish 600 million dollardan ortiq miqdordagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda 1 ming 300 ta yangi ish o'rnini yaratish imkoniyatini berishini ta'kidladi. Elektrostansiyaning foydalanishga topshirilishi yiliga 1,8 gVt /soat miqdorida arzon elektr energiyasi ishlab chiqarish hisobiga respublikaning energetika balansini diversifikatsiya qilish va mustahkamlashga imkon beradi. Bu 500 mingdan ziyod uy xo'jaligining ehtiyojini qoplaydi deganidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бобылев С.Н., Ходжаев А.Ш. Экономика природопользования. Учебник. – Москва: 2003. – 567 с.
2. Германович В., Турилин А. Альтернативные источники энергии. Практические конструкции по использованию энергии ветра, солнца, воды, земли, биомассы. – Санкт-Петербург: Наука и техника, 2011. – 320 с.
3. Қаҳҳоров С.К., Самиев К.А., Жўраев Ҳ.О. Куёш қурилмаларидағи жараёнлари моделлаштириш. Монография. –Тошкент. ITA PRESS, 2014. – 208 б.
4. Jo'rayev T.D. Quyosh issiqlik qurilmalari. O'quv qo'llanma. -B.: Dizayn-Press, 2012. – 107 b.
5. Мухитдинов М., Эргашев С.Ф., Исакулов Ж.И. Куёш энергиясидан фойдаланиш. Тошкент. ДТМ. 1999. -107 б.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-5 (30-May)**

-
6. Шодиметов К. Муқобил энергия турлари – ҳаётга!. –Т.: SHARQ NMAK, 2011. – 88.